

ISAJON SULTONNING ANALITIK FOLKLORIZMLARDAN
FOYDALANISH MAHORATI

Zebo Qobilova

Qo‘qon DPI professori, filologiya fanlari doktori

F.Qurbanova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Isajon Sulton hikoyalarida folklorning eng qadimiylari va boy janrlaridan biri qo‘shiqlardan ham samarali foydalanganligi “Qo‘riqchi” hikoyasi misolida tadqiq etilgan. Yozuvchi qo‘riqchi nigohi bilan vaqtning bir bo‘lagini qirqib olgan va unda qo‘riqchi, ilon, qushlar, karvon, daryoning baliqlari tilidan bir bek yigit va bir oy qizning o‘zaro ko‘ngil qo‘ygani, keyinchalik oila qurgani, turmush mashaqqati-yu tashvishlaridan, xash-pash deguncha o‘tib ketayotgan umrdan hikoya qiladi. Bu hikoyalar bir oilaning kechasi, buguni va kelajagi misolida butun insoniyat taqdiridan so‘ylaydi. Hikoyaning erta bahor tasviri bilan boshanib, kech kuz manzarasi bilan yakun topishi umrning ramziy ifodasidir. Hikoya tarkibidagi qo‘shiqlar ham xuddi xalq qo‘shiqlari kabi kechinma, holatni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: folklorizm, xalq qo‘shiqlari, hikoya, taqadir, ramz, syujet, kompozitsiya, obraz, kechinma.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida milliy koloritni yaratish, xalq hayotini yorqin bo‘yoqlarda tasvirlash uslubi sifatida xalqona tasvir va folklor elementlaridan keng foydalanimoqda. Avvalo ta’kidlash kerakki, xalqona tasvirlash mahorati zaminida xalq ijodini puxta o‘rganish yotadi. Xalq ijodini o‘rganish bu xalqning turmush tarzini, urf odatini, an‘analarini, tarixini, buguni va kelajagini, o‘y-kechinmalari va ruhiyatini o‘rganish demakdir.

Zamonaviy o‘zbek nasri taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shib kelayotgan ijodkor O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Isajon Sulton bugungi adabiy jarayon, bugungi o‘zbek nasri haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Adabiyotda o‘zgarishlar muttasil ro‘y berib turibdi. O‘zbek nasri sust, deb baholaydiganlar bor. Bizlar olamshumul muvaffaqiyatlarga ko‘nikib qoldik. Asarlar zo‘rmi-zo‘rmashi, deyaverib o‘zimiz ham charchab ketdik. Asarni bunday baholash marketingning ishi, uni zo‘r deb o‘sha maqtab sotishi kerak. Adabiyot esa, nima bo‘lsa bo‘lsin, yashamoqda. Ko‘p hollarda baribir bag‘rikengroq bo‘laverish kerak deb o‘ylayman. Bugun yaratilayotgan asarlar, xoh kichik, xoh katta bo‘lsin, bugungi kun kishisining dardu iztirobini, unga kuch-quvvat bag‘ishlab turgan qadriyatlarni, o‘y-ishonchini aks ettirmoqda. Ya’ni badiiy tarix yaratilmoxda” [1. 4]

Isajon Sultonning analitik folklorizmlardan ijodiy foydalanimoqda hikoyalardan biri “Qo‘riqchi” hikoyasidir. Adib qo‘riqchi nigohi bilan vaqtning bir bo‘lagini qirqib olgan va unda qo‘riqchi, ilon, qushlar, karvon, daryoning baliqlari tilidan bir bek yigit va bir oy qizning o‘zaro ko‘ngil qo‘ygani, keyinchalik oila qurgani, turmush mashaqqatiyu tashvishlaridan, xash-pash deguncha o‘tib ketayotgan

umrdan hikoya qiladi. Bu hikoyalar bir oila misolida butun insoniyatning kechasi, buguni va kelajagidan so‘ylaydi. Hikoyaning erta bahor tasviri bilan boshlanib, kech kuz manzarasi bilan yakun topishi umrning ramziy ifodasidir.

Qo‘sishq dil oynasidek, borni ko‘rsatish yo‘lini tanlaydi. Ko‘rsatish usulida ifoda, tasvir ramziy obraz zimmasiga tushadi. Isajon Sulton ham xalq qo‘sishqlaridagi ramzlar mohiyatidan foydalangan va, ayni paytda, individual ramzlar yaratgan. Avvalo hikoya matnidagi ramzlar mohiyatini aniqlab olmasdan na hikoyani, na undagi qo‘sishqlarni tushunish qiyin. Dastlab qo‘riqchi akslantirayotgan ramzga e’tibor bersak. Bepoyon dala o‘rtasiga o‘rnatib qo‘yilgan qo‘riqchi butun asar voqeligini kuzatib turadi: “Asl kim ekanimdan bexabarman, biroq, juda muhim bir vazifani ado etayotganimni bilaman. Yo‘qsa, meni shu yerga qaqqaytirib qo‘yarmidi Xudoyim? Goho ilg‘aganlarimdan xabar bergim, ogohlantirgim keladi, ammo sasim o‘zim istagan mahalda chiqqa qolmaydi. Ovoz chiqara olishim uchun shabada va quyosh kerak. Yo‘qsa bir sharpa kabi ekinzor o‘rtasida qaqqayib turman xolos. Tevarakda esa, bot bot meni qo‘rkitadigan xodisalar ro‘y bermoqda.

Bug‘doylar sarg‘ayib, poyalaridan suv qochgan, bo‘liq bo‘liq boshqqlari egilib qolgan.

Huv narida kichkina daryo bor. Ichidagi qora baliqlari ancha kattargan, muzday suvdan boshlarini chiqarib, tevarakkka indamay boqishadi.

Bug‘doyzor yoqalab o‘tgan yo‘lda bitta yo‘lchivin uchib yuradi, goho kelib ustimga qo‘nadi.

U yo‘ldan karvonlar o‘tadilar...Karvonning tuyalari pishqiradi, aravalar g‘iyqillaydi. Qaylargadir - ufq qirmizi tusda yallig‘lanib, quyosh botadigan tomonlarga ketib borishadi...” [2. 206-207].

Matnga tayanib aytish mumkinki, qo‘riqchi - yozuvchining o‘zi. Chunki ijodkorlar boshqalardan ko‘ra bo‘lib turgan va bo‘lajak hodislarni oldindan ko‘ra biladi. Asarlari orqali ogohlantiradi ham. Lekin buning uchun ijodkorga pokiza muhit va erkinlik kerak (quyosh va shabada).

Hikoyadagi daryo – (chevara) hayot, ayni vaqtida o‘tib borayotgan vaqt, xijron, baliq- g‘am, g‘ussa, ilon – aql, karvon - umr, yo‘lchivin – umri besamar kechgan odam, jayron – umid mazmunini anglatuvchi ramzlardir.

Qo‘riqchi hikoyasidan so‘ng: “Men oq ilon, oppoq ilon edim ...Oydinda yotar edim”-, deb boshlanadi ilonning hikoyasi. Matndagi “oq ilon” obrazi uyg‘otuvchi asosatsiya qadim e’tiqod va inonchlар asosida paydo bo‘lgan. Xalq oq ilonni aziz sanab, uni e’zozlash yaxshilikka, aksinchal munosabat yomonlikka olib keladi, deb ishonadi. Odamlarning oqilon ezgulik keltirsin, degan niyatda un sepib, sut bilan siylashlari shundan.

PROFESSOR RAHMATULLA BARAKAYEVNING 70 YILLIGI

Ilon ariq bo‘yidagi chakalakzor qoshiga kelguvchi bek yigit va oy qizning hayotning ajoyibotlaridan, lazzatu farog‘atlaridan, sevgi muhabbatdan so‘ylashlarini, bir-birisiz yashay olmasliklarini aytishlaridan xabar beradi va bek yigitning qizga qarata aytgan qasamidan (“Mana shu oyga, shu kechaga qasam, shu sharqirab oqayotgan suvga, shu yulduzlarga qasam men sizni albatta baxtli qilaman”) xavotirini izxor qiladi: (Hoy, bek yigit, qasamning nima ekanini bilmasdan nega tilingga olding? Ichgan qasamlaring ko‘k toqiga ko‘tarilib ketishini, u yerda shamshirga aylanib,boshing uzra osilib turishini bilmasmiding? Bir sultanib tushsa bormi...taqdirningu rizqlaring, voqealarning iplarini kesib uzib yuborsa -ya, deb qo‘rqrar edim”). Butun hikoya davomida ilonning xavotiri bejiz emasligi ochila boradi.

Hikoyada ilon shirin suhbatlariga guvoh bo‘lgan yigit va qizning chakalakzorga kelmas bo‘lganliklarini, ular suhbat qurgan paytlardagi atrofida yalpizlar o‘sgan ariqcha ham yillar o‘tib, nima uchundir kengayib daryoga aylanganini, qoramitir baliqlari ham ko‘payib, kattalashib borayotgani aytilar ekan, ittifoqo o‘sha bek yigitning ketmon chopayotgani va oy qizning esa egatlar chetida bolasini emizganicha xorg‘in qo‘shiq kuylayotgani manzarasi bor:

Bozor borguvchi, ey boylar,
Otamga salom, denglar,
Otam mani so‘rasa,
Yuribdi omon, denglar,
Qoshiqda oshi, denglar,
Ko‘zida yoshi, denglar....[2.209]

Yozuvchi xalq qo‘shig‘i orqali ayolning ongosti va ongida kurashayotgan istaklarini shu qadar ramziy ifoda qilganki, ularni tavsiflab jo‘nlashtirish xavfi mavjud. Faqat qo‘shiqni his etish lozim. Qo‘shiqda kecha ariq bo‘yida ichilgan qasamlar ijobat bo‘limgani, turmush deb atalgan katta yo‘l faqat go‘zalliklardangina iborat emasligidan chekkan iztiroblar, sog‘inchlar mujassam.

Hikoyada bek yigitning daryodan suv ochayotgani, bu suv bo‘tana va loyqa ekanai aytildi. Suv folkorda –yorug‘lik, baxt, quvonch, oila faravonligi, farzandar baxti, to‘kinlik kabi raziy ma’nolarga ega. Loyqalangan suvni esa noxushlik ramzi sifatida talqin qilish mumkin.

Keyingi qo‘shiq mashhur xalq qo‘shig‘idan olingan bo‘lib, karvonboshi tilidan aytilgan:

“Yo‘lchivinning holini yurgan yo‘lovchidan so‘rang,
Biz g‘arib bechorani aqli raso yordan so‘rang....
Biz g‘arib bechorani aqli rasolar bilmasa,

Ko‘z yoshi daryo bo‘lib oqqan baliqlardan so‘rang....” [2. 210-211]

Bu qo‘sinqing orqali adib nafaqat bir inson, balki, butun bir insoniyatning ruhiy olamini aks ettirgan.

Qo‘sinqning sharhi baliqlar hikoyasida ochiladi: “O‘tib borayotgan karvon boshidagi bir kishi xirgoysi qiladi. Narida ekinzor chetida bolasini emizib o‘tirgan yosh juvon ham qo‘sinq aytadi. Bu ohanglar suvning mavjiga qo‘shiladi, ular taralgani on o‘z-o‘zimizdan yig‘lay boshlaymiz. Ko‘zimizning yoshidan daryoning suvlari yanada ko‘payib toshadi, ko‘piklanib, o‘zanidan toshib chiqquday bo‘lib pishqiradi [2.211].

So‘nggi qo‘sinq esa qo‘riqchining oxirgi hikoyasida yana o‘sha daladagi hosilini yig‘ib olayotgan ekinzor egasining (hov, o‘sha ariq bo‘yidagi yigitning) ayoli tomonidan aytildi. Mazkur qo‘sinq xalq qo‘sishlari tasnifiga ko‘ra murojaat qo‘sishlari turkumiga kiradi. Kishi ko‘nglida kechayotgan, ayniqsa, odam xayoliga keltirishga o‘zi ham qo‘rqib, ko‘ngil tubiga cho‘ktirilgan o‘y-tuyg‘ular qo‘sinq bo‘lib kuylanadi. Qo‘sinq kishiga sirdosh, mungdosh bo‘ladi. Bunday holatlarda ramziy obraz ifodaning eng maqbul shakli hisoblanadi. Insoniy munosabat fasllari ham turli davriy halqalarda kechadi. Yoz qishga do‘nganidek, otashin sevgi qahrli nafratga aylanishi mumkin. Bu yerda ko‘z yoshi ayriliq ma’nosini ifoda etuvchi va jazolovchi magik unsurga aylanadi. Lirik qahramon muhabbatining qadriga yetmagan oshig‘i endi azoblanishini istaydi:

Oh urarman, oh ursam, ohlarim tutsin seni,
Ko‘z yoshim daryo bo‘lib, baliqlari yutsin seni..... [2.212].

Hikoyadan o‘rin olgan xalq qo‘sishlari kechinma, holatni aks ettiradi. Mayda-mayda sabablar, tashvishu g‘amlar – ulkan baliqlarga aylandi, endi ular odam bolasini yutar darajaga yetmasa bo‘ldi! Qo‘riqchining xavotiri shundan.

Olam tuzilishiga asos sifatida qaraluvchi to‘rt unsurning har biri barcha folklor namunalarida muhim mifologik ramz, marosim elementi sifatida juda keng va turlicha shakllarda poetik mushohada etiladi. To‘rt unsurning biri bo‘lgan suv – ummon, dengiz, daryo, ko‘l, irmoq, buloq obrazasi ko‘rinishida xalq ijodiyotida alohida-alohida poetik funksiya bajaradi va turfa ma’no tashiydi. Suvning atributlari – har xil buyumlar, jonivorlar, mifologik obrazlar bo‘lib kelishi mumkin. A.Musaqulov o‘zbek xalq qo‘sishlarini tadqiq etar ekan, baliqni suv jonivori, hovuzni suv analogi, oynani suv parchasi, qizni suvning mifopoetik ramzi sifatida talqin qiladi [3.188-199]. Shuningdek, daryo – poklanish, topigish, chegara, yer osti makonlariga olib kiruvchi eshik, xavf, qo‘rquv, bashoratni anglatuvchi ma’nolarga ega.

Folkloshunos Sh.Turdimov o‘zbek xalq qo‘sishlari tarkibida keluvchi daryo obrazini o‘rganar ekan, mazmun mundarijasiga ko‘ra quyidagicha tasnif qiladi:

a) oshiq va ma’shuq o‘rtasidagi chegara;

v) daryo ko‘z yoshining analogi sifatida namoyon bo‘ladi va ayriliq, hijronning haddan oshganini, qahramon kuchli ruhiy jarayonni boshdan kechirayotganini bildiradi;

g) daryo – hayot, ayni vaqtda o‘tib borayotgan vaqt mazmunida ;

d) daryo – inson va uning hayot yo‘li timsoli sifatida [4.11-113].

Mazkur hikoyadagi daryo ayriliq, hijronning, o‘tib borayotgan vaqtning ramzi sifatida kelgan deyish mumkin.

Aytish mumkinki, folklor Isajon Sultonga o‘z yo‘li, uslubi, o‘zligi va o‘q ildizini topishga yordam bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Asarlar zo‘rmi-zo‘rmasmi, deyaverib charchadik, adabiyot nima bo‘lsa ham yashamoqda". O‘zA <https://uza.uz/posts/338014> .
2. Isajon Sulton. Qo‘riqchi. Hazrati Xizr izidan. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent. 2018.
3. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
4. Turdimov Sh. Xalq qo‘shiqlarida ramz. - T.: Fan, 2020.